

## BIZNES BOSHQARUVIDA INVESTITSİYALAR SALOHIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Abdurazzakova Shohista Mahmudbek qizi

Emu university dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Fan va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Yusupov Bekzod Ulug'bekovich

Shohista900530696@gmail.com

tel:+998900530696

### Annotatsiya:

Tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb qilish tizimi o'rganib chiqilgan. Investitsiyaning mohiyati ochib berilgan. Investitsion salohiyatga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, risk, investor, mulk, tadbirkor, biznes, tadbirkorlik loyihasi, innovatsiya, capital

### Аннотация:

Изучена система привлечения инвестиций в предпринимательскую деятельность. Раскрывается суть инвестиций. Проанализированы факторы, влияющие на инвестиционный потенциал.

**Ключевые слова:** инвестиции, риск, инвестор, собственность, предприниматель, бизнес, бизнес-проект, инновация, капитал.

### Abstract:

The system of attracting investments to business activities has been studied. The essence of the investment is revealed. Factors affecting investment potential have been analyzed.

**Keywords:** investment, risk, investor, property, entrepreneur, business, business project, innovation, capital



## Kirish

Yurtimizda biznesni diversifikatsiya qilish, tova va xizmatlarni yanada arzonlashtirish va yangi biznes obyektlarini yaratish, mamlakatimizning barcha hududlarida tadbirkorlik va unga yondosh infratuzilmani rivojlantirish, shu bilan birgalikda, milliy tovar, xizmatlar ichki va tashqi bozorlarda faolligini oshirishda investitsiyalarni jalb qilish zaruriyati dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Investitsiyalar — investorlar tarafidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ijtimoiy soha, ilmiy va boshqa faoliyat yo‘nalishlari obyektlariga risklar asosida kiritiladigan nomoddiy va moddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar hisoblaniladi<sup>1</sup>. Investitsiyalarga turli olimlarimiz turlicha ta’rif berganlar (1-jadval).

### 1-jadval Investitsiya ta’rifi bo‘yicha o‘zbek olim va tadqiqotchilarining qarashlari<sup>2</sup>

Olimlar	Investitsiyaga berilgan ta’riflar
Xodiev B.Y., Shodmonov Sh.Sh.	Investitsiyalar asosiy va aylanma kapitalni ko‘paytirish va qayta tiklashga, ishlab chiqarish quvvatlarini takomillashtirishga qilingan sarf-xarajatlarning pul shakli ko‘rinishidir <sup>3</sup>
Vaxobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo‘minov N.G.	Investitsiyalar ijobiy ijtimoiy samaraga erishish hamda foyda olish maqsadida tadbirkorlik ob’ektlariga va uning faoliyat turlariga qo‘yiladigan banklarning maqsadli omonatlari, pul mablag‘lari, boshqa qimmatli qog‘ozdagi texnologiyalar, aksiyalar, uskunalar, mashinalar, kreditlar, litsenziyalar, har qanday boshqa mulkiy huquqlar yoki mol-mulk, intellektual boylikdir. <sup>4</sup>
G‘ozibekov D.G‘.	Investitsiyalarning mazmuni ishonchli va aniq manbalardan daromadlar olish, ularni maqsadli yo‘naltirish, risk darajasini hisobga olgan tarzda kapital qiymatini saqlab qolish va rejalashtirilgan foydani olish. <sup>5</sup>
Haydarov N.H.	Investitsiya-bu mulk turidan qat’iy nazar, tadbirkorlik faoliyati asosida xizmat ko‘rsatayotgan yuridik va jismoniy shaxslar yoki

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2019- yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida” gi 589 sonli Qonuni 3-modda.

<sup>2</sup> Mazkur jadval tegishli adabiyotlarni o‘rganish asosida muallif tomonidan amalga oshirildi..

<sup>3</sup> B.Yu.Xodiev Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik 2017 y.454-b.

<sup>4</sup> Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.:”Moliya”, 2010. 303-b.

<sup>5</sup> G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.T. “Moliya” nashriyoti.2003.26-b.

	davlatning ijtimoiy va iqtisodiy daromad olishni maqsad qilib olgan mablag‘larini qonunchilikka asosan har qanday tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirishdir. <sup>6</sup>
Mahmudov N.M., Avazov N.R.	Investitsiyalar-iqtisodiy yuksalishning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, aylanma va asosiy kapitalni ishlab chiqarish ko‘lamini oshirish, restavratsiya qilish va miqdorini oshirish maqsadida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, xorijiy subyektlar yoki davlat tomonidan qonunchilikda taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat manbalariga kiritiladigan sarmoyalar va unga bo‘lgan egalik qilish hamda mavjud jamg‘arilgan mablag‘dan kelajakda foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan pul qo‘yilmalardir. <sup>7</sup>

Investitsiyalar to‘g‘risida rossiyalik olimlar tomonidan ham turlicha ta’riflar berilgan: “Investitsiyalar-pulni saqlash, ko‘paytirish yoki ijobiy miqdordagi daromadni ta’minlashni hisobga olgan holda uni joylashtirish mumkin bo‘lgan har qanday vosita sifatida ifodalanadi”<sup>8</sup>;

“Investitsiyalar-foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o‘z yoki o‘zga mamlakatning turli tarmoqlariga va sohalariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar hamda innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan pul mablag‘larini uzoq muddatga joylashtirishdir”<sup>9</sup>;

“Investitsiyalar o‘zini daromad olish maqsadida milliy va xorijiy iqtisodiyotning turli tarmog‘iga xususiy yoki davlat kapitalining uzoq muddatli loyihalar va shu kabilarga kapital, pul mablag‘larini uzoq muddatga kiritishni anglatadi”<sup>10</sup>. Isroillik tadqiqotchi, Wisconsin-Madison in sociology universiteti olimi Adam Xayes tomonidan investitsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Investitsiya - bu daromad yoki qadrlash maqsadida sotib olingan aktiv yoki buyumdur. Qadrlash deganda aktiv qiymatining vaqt o‘tishi bilan o‘sishi tushuniladi. Jismoniy shaxs investitsiya sifatida tovarni sotib olayotganda, uning maqsadi iste’mol qilish emas, aksincha uni kelajakda boylik yaratish uchun ishlatishdir. Investitsiya har doim har qanday

<sup>6</sup> Haydarov N.H.Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investision faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari.I.F.D. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya.T.:2003.29-b.

<sup>7</sup> Mahmudov N.M.,Avazov N.R.”O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investisiyalardan samarali foydalanish yo‘llari”. Ilmiy-ommabop risola.T.:TDIU, 2019 yil, 9-b.

<sup>8</sup> Игошина Л.Л.Инвестиции Уч.пос.-М.:”Экономист”, 2005.-23 с.

<sup>9</sup> Нешиной А.С. Инвестиции Учебник.-4-е. Изд.-М.:” Дашков и К”, 2006.-13 с.

<sup>10</sup> Зубченко Л.А. Иностраннии инвестиции, Уч.пос.-М.:”КНИГОДЕЛ”.2006.-7 с.

aktivning sarflanishiga tegishli - vaqt, pul yoki kuch - kelajakda dastlab qo'yilganidan kattaroq foyda olish umidida sarmoya kiritishdir"<sup>11</sup>. AQShlik olim J.Bernard tomonidan berilgan ta'rifga qaraganda "Investitsiya har qanday aktiv yoki nomoddiy aktiv-ya'ni bu davriy daromadni ta'minlash hamda qiymatini oshirish imkoniyatidir"<sup>12</sup>. Mintaqaning turizm yo'nalishidagi investitsion imkoniyati va investitsiya to'g'risida yuqorida tadqiq qilingan xalqaro ilmiy tadqiqotlar o'rganilgan holda, investitsion salohiyatini quyidagi omillar orqali tashkil etish maqsadga muvofiqdir (2-jadval).

2-jadval Investitsion salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar<sup>13</sup>

Omillar	Mazmuni
<b>iqtisodiy holat</b>	to'lov balansining holati, valyuta tizimi barqarorligi, ichki bozor ko'lamining kattaligi, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanganligi, YaIM, turmahsulotlari va turizm sanoati o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi;
<b>huquqiy asos</b>	yangi shart-sharoitlarga mos keladigan alohida yo'nalishlari, iqtisodiy va ijtimoiy tarafdin rivojlanishini ta'minlaydigan huquqiy-me'yoriy shu qatorda, Prezidentning farmonlari va qarorlari, VM qarorlari, tegishli yo'riqnomalar va nizomlar mavjudligi;
<b>tabiiy xomashyo boyliklari</b>	suv va yoqilg'i-energetika zaxiralari, xomashyo, mineral, turmahsulot ishlab chiqarish quvvatlari;
<b>bandlik va mehnat resurslari</b>	iqtisodiy band aholi ulushi, faol aholi soni, mutaxassislarning malaka darajasi, aholi savodxonlik darajasi, ishsizlik darajasi ko'rsatkichi, ishchilar daromadi darajasi;
<b>ishlab chiqarishning texnik asosi</b>	asosiy ishlab chiqarish fondlari, asosiy fondlarning eskirish darajasi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muhlati;
<b>ilmiy texnika taraqqiyoti</b>	chet el investitsiyalar miqdori, iqtisodiyotni yaxshilashga yo'naltirilgan investitsiyalar, shu jumladan investitsiya xavf-xatar darajasi innovatsion yutuqlaridan foydalanish, ishlab

<sup>11</sup> <https://www.investopedia.com/terms/i/investment.asp>.

<sup>12</sup> Bernard J, Winger Ralph R, Frasca. "Investments introduction to analysis and planning". New York.: "Merrill", 1998 y. -12 p.

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi.



	chiqarishning texnik jihozlanishi sohasini rivojlantirish holati, katta va yuqori texnologik turlarni ishlab chiqarish, mahsulotning sig'indorligi;
<b>moliya-kredit tizimi</b>	kredit va soliq siyosati, iqtisodiyotdagi korxonalarining rentabellik va foydalilik darajasi, narxni shakllantirish va narx siyosati siyosati;
<b>Infrastruktura</b>	bank tarmog'ining rivojlanish holati, kommunikatsiya, transport xizmatlari va tovar va fond birjalari, mehmonxona xo'jaligi sohalari, marketing, auditorlik xizmatlari, konsalting, sug'urta tarmog'ining ishonchliligi;
<b>ekologik vaziyat</b>	radiatsion fon, tabiiy iqlim va uning o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanish darajasi, zararli chiqindilar, chet el fuqarolarning unga moslashish darajasi;
<b>mamlakatdagi siyosiy vaziyat</b>	mamlakatdagi siyosiy vaziyat, yurt tinchligi, dinlararo bag'rikenglik va teng huquqlilik;
<b>turistik salohiyat</b>	turistik ob'ektlar: agro va ekotizim, hududda mavjud bo'lgan madaniy-tarixiy obidalar, turistlarga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy va maishiy maskanlarning rivojlanganligi.

Investitsion muhit holatini investitsion faoliyatini amalga oshirishning jozibadorligi, maqsadga muvofiqligini aniqlaydigan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, siyosiy, huquqiy, ekologik shart-sharoitlarning birlashtiruvchi xususiyatlarini belgilaydi. Investitsion muhit deyilganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning aniq belgilangan hududiga kiritiladigan investitsiyalari rentabelligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, siyosiy, madaniy, ekologik va boshqa shart-sharoitlar majmui hisoblaniladi. Har bir mamlakatga investitsiyalarning rivojlanish darajasi va kirib kelishi mazkur mintaqadagi investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarga chambarchas bog'liqdir. O'tkazilgan tadqiqotlarimiz xulosalaridan kelib chiqib, aytish joizki, "investitsiya-bu kelajakda istalgan belgilangan davrda qiymatini oshirishi yoki daromad keltirishi maqsadida sotib olingan aktiv, buyum yoki nomoddiy aktivlar, intellektual mulklarga sarmoya kiritishdir"<sup>14</sup>.

Investitsiya boshqa misollar qatorida kelajakdagi daromadlarni yaratish uchun ishlatiladigan har qanday mexanizmga, shu jumladan obligatsiyalar, aksiyalar,

<sup>14</sup> Investitsiya atamasiga muallif tomonidan berilgan ta'rif.





ko'chmas mulk yoki biznesga tegishli bo'lishi mumkin. O'zbekistonda biznesni yanada rivojlantirish, keng miqyosli manbalardan to'liq va samarali foydalanish, faoliyatining boshqa jozibador hududlarda yangi biznes turlarini tashkil etish, tadbirkorlik sohasini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim hisoblaniladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sul'tonov M.A., "O'zbekistonda investitsiya fondlarini rivojlantirish istiqbollari"., Dissertatsiya. Toshkent 2019.
2. Karimqulov J.I., "Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari". Dissertatsiya. Toshkent 2019.
3. Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.F.D. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.:2003.
4. R.H. Alimov, B.T. Bayxonov, A.I. Ishnazarov, J.O. Imomov. Korxonalarda investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish. o'quv qo'llanma. Toshkent - «Fan va texnologiya» - 2014
5. Karimov N.G'., Xojimatov R.X., Razzokov J.X. Investitsiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019. 149-bet.

### Internet saytlar

1. <https://www.investopedia.com/terms/i/investment.asp>
2. <https://www.unwto.org/investment/tourism-investment-report-2020>
3. <https://www.fdiintelligence.com/article/78690>
4. <https://www.trt.net.tr/uzbek/iqtisodiyot/2019/09/28/turkiya-2023-yili-75-million-sayyohga-mezbonlik-qilishni-rejalashtirmoqda-1277956>
5. <https://www.cctinvestments.com/foreign-direct-investment-in-turkey-may-exceed-30-billion-dollars/>

